

Ватанни Севиш – Маънавий Жасоратдир**Botirov Uchqun Vofiqulovich**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti Harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Vatan – kishilarning tug‘ilib o‘sgan joyi, yurti, mamlakati; tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, o‘ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlar majmui. Inson o‘z kindik qoni to‘kilgan, tug‘ilib o‘sgan diyorini Vatan deydi, ammo har bir inson bu tushunchaga o‘z ma’naviy kamolot darajasidan kelib chiqib yondashadi. “O‘z uyim – o‘lan to‘shagim”, deydi birov, boshqasi tug‘ilgan shahar yoki qishlog‘ini Vatanim, yurtim deb ataydi. Vatan – kishilarning yashab turgan, ularning avlod va ajdodlari tug‘ilib o‘sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati. Vatan tushunchasi keng va tor ma’noda qo‘llaniladi. Keng ma’noda – butun bir xalq, ularning ajdodlari azaldan istiqomat qilib kelgan hudud. Tor ma’noda kishi tug‘ilib o‘sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutiladi. Insonning uyli-joyli, boshpanali bo‘lishi ham Vatan ma’nosida anglanadi. Vatan ostonadan boshlanadi. 1 Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-жилд. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 395. 162 Vatan – bu inson va uning avlod-ajdodlari kindik qoni to‘kilgan muqaddas dargohdir. Vatan – bu ajdodlar maskani, el-yurt, xalq voyaga etgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlar, qadriyatlar chinakamiga shakllanib, o‘tib kamol topib boradigan zamindir. Vatan ona kabi aziz va mukarramdur. Vatan insonga baxt-iqbol beradigan zamindir. Vatan – ajdodlardan avlodlarga qoladigan eng buyuk, bebaho meros, eng aziz xotira. Vatanni avaylab asrash, uning boyligini e‘zozlash har birimizning muqaddas burchimiz bo‘lgani kabi kurrai zamin – Yer sayyoramizni ham avaylab asrashga, uning barcha boyligi: tabiati, o‘simlik va hayvonot dunyosi, musaffo osmonni va boshqalarni kelgusi avlodlarga qoldirish yo‘lida har bir kishi o‘z hissasini qo‘shishi kerak. Vatan – bu xalqning o‘tmishi, buguni va kelajagidir. Vatan muqaddas qadriyat. Inson uchun vatan yagonadir. Vatanning katta-kichigi ham, boy-kambag‘ali ham bo‘lmaydi. Vatan tanlanmaydi. Vatan bizning molimiz emas. Shuning uchun ham u pulga sotilmaydi va sotib olinmaydi. Vatan in‘om etilmaydi, qarzga berilmaydi. Vatan har bir fuqaro uchun muqaddas va betakrordir. Vatan – sajdagoh kabi muqaddasdur. Vatanni eng oliy ne‘mat singari boshimiz uzra baland ko‘tarib, har on va har soniya uning tuprog‘ini ko‘zlarga surtib, unga ta‘zim bajo aylashimiz farzandlik burchimizdir. Inson istagan joyda bir parcha nonga qornini to‘ydirishi mumkin, lekin Vatanning o‘rnini hech narsa bosa olmaydi. O‘z Vatanda yashash har bir kishi uchun haqiqiy baxtdir. Vatan tuyg‘usi – keng, serqirra, shunday bir ildizi chuqur tushunchaki, uni bir so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi. Vatan tuyg‘usi – vatanga muhabbat qo‘yish, binobarin, unga sadoqat bilan xizmat qilish ekanini hamma ham tushunadi. Lekin, VATAN nomini tilga ola-ola boshni ko‘tarib, baland ovoz bilan duch kelgan joyda “men Vatanni sevaman” tarzida

pesh qilaverish, juda jo'n, sayoz iboralar yig'indisidan madhiyalar to'qish, goh she'rda, goh nasrda, so'zda, publitsistikada ko'krakka urib chiqaverish hali chinakam vatanparvarlikni bildiradigan belgilar emas, es-hushi joyida odamlar buni yaxshi idrok etadilar¹. Vatanparvarlik – kishilarning ona yurtiga, o'z vataniga muhabbat va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun 1 Алиев А. Маънавият, қадрият ва бадиият. – Т.: Академия, 2000. – Б. 90. 163 umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri¹. Vatanparvarlik — eng ma'lum va mashhur axloqiy tamoyil. U insonning o'z Vataniga muhabbatini, uni asrab-avaylashga bo'lgan ishtiyoqini anglatuvchi ma'naviy tushuncha. Uni ko'pincha Vatan dushmanlariga qarshi ma'naviy mafkuraviy qurol sifatidagina talqin etadilar. Vatanparvarlik bu – hammamizning o'z ishimizga mas'uliyat bilan qarash, Vatanning boyliklarini ko'z qorachig'iday asrash, boyliklarini yanada ko'paytirishga o'z ulushimizni qo'shish, ilm-fan cho'qqilari sari intilish va boshqalardir. Vatanparvarlik bir so'z bilan aytganda o'z ijobiy ishlarimiz, bunyodkorlik harakatlarimiz bilan uning kuch-qudratiga, gullab-yashnashiga imkon darajasida hissa qo'shish, ona yurtimizda tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikni saqlashga intilish vatanparvarlikning belgisidir. Vatanparvarlik – halqaro munosabatlarda vatan, millat manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishdir. Hattoki, Vatan timsollari sanalmish – Davlat Gerbi, Davlat Bayrog'i, davlat Madhiyasi ham – Ona vatanimizga, O'zbekiston Respublikasiga iftixor va cheksiz hurmat, vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalaydi. Vatan timsollari ona yurtning bebaho ne'matlari, tengsiz boyliklari, sahovatli zamini, fidoyi va mard insonlarini doimo yodda tutib, Vatan mehrini hamisha qalbdan asrab yashashga da'vat etadi. Biz bu timsollarning har biriga qaraganda, huddi tomchida quyosh aksi namoyon bo'lgandek, Vatanimizni ko'ramiz. Ayniqsa, Vatan timsollari Vatanning mustaqil davlatchilik an'analari bilan bog'liq bo'lib, Vatan timsollari yoshlarni mard va vatanparvar, el-u yurt ishiga sadoqatli qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz mukofotlari – “O'zbekiston qahramoni” oliy unvoni, orden va medallar, fahriy unvonlar ham mamlakatimiz fuqarolarida o'z Vatanidan g'ururlanish tuyg'ularini oshirishga xizmat qiladi. Vatanparvarlik tuyg'usi ajdodlarimiz ma'naviy meroslarida ham o'z ifodasini topgan bo'lib, u barcha insoniy tuyg'u va qadriyatlarni o'z ichiga qamrab oladi. Mana shunday tuyg'ulardan biri – vatan sog'inchidir. Vatanni sog'inish, uni qo'msash undan yiroq bo'lganda yoki uni qo'ldan boy berganda ko'proq his etiladi. Tabiiyki, inson qayerda dunyoga kelsa ana shu yer uning uchun qadrlil Vatan hisoblanadi. Kindik qoni to'kilgan joy inson uchun hech narsaga alishib bo'lmaydigan, hamma narsadan ham qimmatli dargohdir. Muqaddas islom dinimizda ham Vatan mehri va sog'inchi kabi tuyg'ular bandaning vijdoni va imonining bir bo'lagi sifatida e'tirof etiladi. Rasululloh 1 Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 395. 164 sallallohu alayhi vasallam Hazrati Abu Bakr Siddiq raziyallohu anhu bilan Madinai munavvaraga hijrat qilib ketayotganlarida orqalariga o'girilib, ya'ni Makkai mukarramaga qarab: “Agar qavmim meni

Makkadan chiqib ketishga majbur qilmaganida, hecham o‘z ixtiyorim bilan uni tashlab ketmagan bo‘lar edim”, - deganlar. Vatanni sevish, uni sog‘inib yashash inson ruhiyatida mavjud bo‘lgan nozik hisdir. Biror sabab bilan Vatanini tashlab, boshqa yurtlarga ketgan kimsa eng og‘ir damlarida uni qo‘msab, ko‘z oldiga keltirishi va tug‘ilib o‘sgan zamini haqida biror qayg‘uli xabar eshitganda qalban ezilishi ham vatanga bo‘lgan muhabbatning belgisidir. Ota-bobolarimiz, ulug‘ ajdodlarimiz va allomalarimiz ham yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga alohida e‘tibor berib, o‘z yurtlariga muhabbatni ifoda etish borasida ajoyib namunalar ko‘rsatishgan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Farg‘oniy, Muhammad Xorazmiy, Abu Lays Samarqandiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abul Mu‘in Nasafiy kabi buyuk mutafakkirlarimiz o‘zlarining taxalluslarini kindik qonlari to‘kilgan yurt bilan bog‘laganlari, ularning nomini dunyoga ma‘lumu mashhur qilganlari ham bir ibratdir. Buyuk shoir va sarkarda, davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z davrining yirik va qudratli davlatlaridan biri – Hindistondan hukmdori bo‘la turib, bir umr Andijonini, so‘lim Farg‘onasini, bobokalonlaridan meros Samarqandini qo‘msab o‘tdi, ijodining salmoqli qismini Vatan sog‘inchiga bag‘ishlaganini uning quyidagi ruboisida ham ko‘rishimiz mumkin: Tole’ yo‘q jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi, Har ishniki ayladim xatolig‘ bo‘ldi. O‘z yerni qo‘yib Hind sori yuzlandim, Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi1 . Islom dinining muqaddas manbasi sanalmish hadis shariflarda ham “Vatanni sevmoq imondandur”, deyilishi bejiz emas. Islom dinida inson o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurti, yor-do‘stlari va yaqinlari bilan bog‘lovchi Vatanini sevishi, uni ardoqlashi imon darajasiga ko‘tarilgan. Vatanni himoyalash islom shariatida farzi ayn – erkak va ayollarga teng bajarish zarur bo‘lgan amal darajasiga ko‘tarilgani ham uning nechog‘lik ulug‘ va muqaddasligidan dalolat beradi. Ayni vaqtda, Vatanni himoya qilish har bir O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining burchi ekanligiga oid qoidaning O‘zbekiston Respublikasi 1 [https:// saviya.uz/adabiyotshunos/bobur-ijodida-vatan-madhi/](https://saviya.uz/adabiyotshunos/bobur-ijodida-vatan-madhi/). 165 Konstitutsiyasining asosiy burchlar bobidagi 52-moddasida mustahkamlab qo‘yilganligi ham fikrimizning yorqin dalili bo‘la oladi. Modomiki shunday ekan, Vatanga muhabbat qo‘yish, uning ravnaqi yo‘lida kuch-g‘ayrat sarflash har bir fuqaro bajarishi lozim bo‘lgan vojib amaldir.